



O‘ZBEKISTONNING MILLIY MADANIY MEROS BOYLIKLARIDAN TURIZMDA FOYDALANISH VA MUZEYLASHTIRISH YO‘LLARI REGISTON ANSAMBLI MISOLIDA

Samarov Xonqul Qahhorovich,

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Registon ansamblini ta‘mirlash va undan foydalanish direksiyasining direktori.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19603719>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning boy milliy madaniy merosidan turizmga samarali foydalanish va tarixiy yodgorliklarni muzeylashtirish jarayonlari o‘rganilgan. Tadqiqotda turizm salohiyatini oshirish, madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, ularni zamonaviy muzey amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari Registon ansambli misolida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada tarixiy me‘moriy majmualarni saqlab qolish, ularni turizm infratuzilmasi bilan bog‘lash, tashrif buyuruvchilar uchun axborot va interaktiv muhit yaratish usullari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, madaniy meros, turizmni rivojlantirish, muzeylashtirish, tarixiy obidalar, Registon ansambli, madaniy turizm, merosni asrash, muzeyshunoslik, Samarqand.

Annotation. This article examines the effective use of Uzbekistan’s rich national cultural heritage in tourism and the processes of museumification of historical monuments. The study analyzes the opportunities for increasing tourism potential, preserving cultural heritage sites, and integrating them with modern museum practices using the example of the Registan Ensemble. The paper also discusses methods for preserving historical architectural complexes, linking them with tourism infrastructure, and creating an informative and interactive environment for visitors.

Keywords: Uzbekistan, cultural heritage, tourism development, museumification, historical monuments, Registan Ensemble, cultural tourism, heritage preservation, museum studies, Samarkand.

Qadimdan O‘zbekiston jahonning ko‘plab mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlikka kirishib kelgan. Savdo karvonlari orqali Sharq va G‘arbni bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘li ham aynan O‘zbekistondan o‘tgan, O‘zbekiston uning eng muhim markazlaridan biri hisoblangan.

Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arb mamlakatlarida ishlab chiqarilgan xilma-xil mahsulotlardan tashqari turli madaniyatlar, an‘analar, kasb-hunarlar va dinlar ham tarqalgan. Ma‘naviy qadriyatlar bilan almashinuvlar amalga oshirilgan. Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi jahon madaniyatining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan Buyuk Ipak Yo‘li uzoq mamlakatlardagi yangi ixtirolar, ilm-fan yutuqlari va madaniy-ma‘rifiy qadriyatlarni qo‘lga kiritish imkoniyatini berganki, bu xalqaro aloqalarda faol ishtirok etayotgan barcha davlatlarning ijtimoiy – iqtisodiy yuksalishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga ko‘tarish borasida, avvalo ko‘hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon, Qo‘qon kabi shaharlar



muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda butun dunyo aholisini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimiy tarixiy yodgorliklar beqiyos ko‘p. Yer yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish orzusida yashaydilar. Ko‘p mamlakatlarda O‘zbekiston o‘zining ana shu shaharlari bilan mashhurdir. O‘zbekistonning ana shu tarixiy shaharlarini ko‘pincha «Sharqning javohirlari» deb atashadi.

O‘zbekistonda jami 8 ming 208 ta moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari mavjud bo‘lib, shundan 4 ming 748 tasi arxeologiya yodgorliklari 2 ming 250tasi arxitektura yodgorliklari, 678 tasi monumental san’at yodgorliklari, 532 tasi diqqatga sazovor joylardir.

O‘zbekiston turizmini rivojlantirishda milliy madaniy meros obyektlaridan va qadriyatlaridan foydalanishning maqsadi va vazifalari aniqlanganda shunga e’tibor berish kerak-ki, har bir davlat o‘z xalqining o‘tmish madaniy merosining boshqa xalqlarda uchramaydigan ko‘rinishlarini, milliy an’analarini jahondagi boshqa xalqlarga ko‘rsatishni, va o‘tmishidagi voqe’liklar va jarayonlar bilan tanishtirishni hoxlaydi.

Chunki, hozirgi globallashuv jarayonida geosiyosatning xalqlarni, millatlarni kamsituvchi yo‘nalishlari ham shiddat bilan ishlamoqda. Hozirda jahon turizmida milliy meros boyliklarining moddiy madaniy meros obyektlari tarixiy-madaniy turizm turining asosiy resurslari hisoblanadi.

O‘zbekiston boy va betakror madaniy merosga ega mamlakatdir. Qadimiy shaharlar, me’moriy obidalar, arxeologik yodgorliklar va ma’naviy qadriyatlar yurtimizning milliy boyligi hisoblanadi. Ana shunday noyob meros namunalaridan biri — Samarqand shahri markazida joylashgan Registon ansamblidir. U nafaqat O‘zbekiston, balki butun insoniyat sivilizatsiyasi tarixida muhim o‘rin tutadi.

Mazkur maqolada milliy madaniy merosdan turizm sohasida samarali foydalanish va uni muzeylashtirish yo‘llari Registon ansambli misolida tahlil qilinadi.

Registon ansambli XV–XVII asrlarda shakllangan bo‘lib, uchta yirik madrasalardan iboratdir:

M.Ulug‘bek madrasasi (XV asr)

Sherdor madrasasi (XVII asr)

Tillakori madrasasi (XVII asr)

Ushbu tarixiy obidalar Temuriylar va Ashtarxoniylar davri me’morchiligining yuksak namunasi hisoblanadi. Ansambl peshtoqlari, murakkab geometrik naqshlar, koshin bezaklari va muqaddas Quroni Karim oyatlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, Sherdor madrasasidagi sher va kiyik tasviri o‘ziga xosligi bilan tubdan ajralib turadi.

Registon asrlar davomida ilm-fan markazi bo‘lib, bu yerda diniy va dunyoviy fanlar o‘qitilgan. Registon ansambli O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlarning eng asosiy manzillaridan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda Registon majmuasida turizmni rivojlantirish maqsadida quyidagi muhim choralar-tadbirlar amalga oshirildi:[1, b. 187]



- Ko‘p tilli gid xizmatlari takomillashtiridi;
- Zamonaviy audio-gid tizimlarini joriy etildi;
- Tarixiy va madaniy festivallar o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi;
- Kechqurungi yorug‘lik-shou va 3D mepping shou dasturlari namoyishi tashkil qilindi.

Bu tadbirlar esa turistlar oqimini ko‘payishiga va ularning qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Shunigdek, turizm samaradorligi infratuzilma bilan uzviy bog‘liqligini inobatga olgan holda Registon atrofida quyidagi infratuzilmalar ham barpo etildi:

- Zamonaviy axborot markazlari va uzoqdan ko‘rinadigan belbordlar;
- Qulay va arzon transport vositalari (elektromobillar) va yo‘l belgilari, Registon ansambliga olib boruvchi yo‘l ko‘rsatkich belgilari yangilanib, zamon talablariga mos ravishda elektron tablolar o‘rnatilgan.

- Registon ansamblida zamonaviy elektron chipta kassalari joriy yetilib, bular orqali turistlar to‘planishining oldi olingan va ularga qulayliklar yaratilgan.

- Sayyohlarga Registon ansambli haqida qulay va tez ma‘lumot olish imkonini berish va navbatlarni kamaytirish maqsadida QR kodli audio gid xizmatini yo‘lga qo‘yilgan.

- Registon ansamblida sayohatchilar favqulodda vaziyatlarda tez va aniq tibbiy yordamga murojaat qila olishlari uchun ma‘lumotlarni o‘zbek, rus, ingliz tillarida ko‘rinishi qulay joylarga o‘rnatilgan.

- Registon ansamblining tashqi hamda ichki dekorativ yoritish tizimlari tubdan takomillashtirilgan.

- Registon ansambli oldida zamonaviy “VR” animatsiyalar orqali tamosha qilish joyi tashkil etilgan.

- Sayyohlar uchun milliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotuvchi suvenir do‘konlari mavjud;

- Registon ansambli hududida sayyohlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish uchun tarixiy obidalar kirish va chiqish eshiklari oldida yaxna ichimliklar va kofe mahsulotlarini sotuvchisiz avtomatlashtirilgan xizmat no‘qtalari tashkil etilgan.

- Registon ansambli hududida telefonlarni quvvatlovchi uskunalar o‘rnatilgan bo‘lib, ularni ko‘paytirish choralari ko‘rilmoqda.

Muzeylashtirish-tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda o‘rganish va keng jamoatchilikka taqdim etish jarayonidir. Registon ansamblini muzeylashtirish maqsadida 2025 yilda Mirzo Ulug‘bek va Tillakori madrasalarida 3D modellashtirish, virtual turlar va QR -kod tizimlari zamonaviy usullari joriy etildi.

Registon ansamblini muzeylashtirishda ilmiy restavratsiya ishlari va doimiy monitoring madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ilmiy tadqiqot va raqamlashtirish, 3D modellar yaratish, virtual turlar tashkil etish, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish, ilmiy kataloglar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etdi.



Bu jarayonlar milliy madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish imkonini ancha kengaytiradi.

Shuningdek, interaktiv muzey muhitini shakllantirish maqsadida majmua hududida multimedia ekspozitsiyalar, Temuriylar davri hayotini aks ettiruvchi installatsiyalar (maxsus kompozitsiyalar), Ta'limiy dasturlar va master-klasslar tashkil qilindi. Bu kabi tadbirlar ayniqsa yoshlar - o'quvchilar va talabalar uchun katta ahamiyat kasb etdi.

Registon ansambli O'zbekistonning asosiy turistik brendlaridan biridir. Bu yerda xalqaro festivallar, madaniy tadbirlar va yorug'lik shoulari tashkil etilishi turistlar oqimini oshirib, ular bizning milliy madaniy merosimiz haqidagi to'liq ma'lumotlarga ega bo'lmoqdalar.

Turizm rivojlanishi bilan birga, yodgorliklarni muhofaza qilish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Registon ansamblini asrash uchun quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- Qurilish va ta'mirlash ishlarini ilmiy nazorat asosida amalga oshirish;
- Turistlar oqimini me'yorlashtirish;
- Atrof-muhit ta'sirini kamaytirish;
- YUNESKO talablariga muvofiq muhofaza choralari qo'llash yaxshi yo'lga qo'yilgandir.

Milliy madaniy merosdan foydalanish uni asrash bilan birga olib borilishi shart. Chunki ushbu qo'llanilgan omillar turistlar uchun qulaylik yaratib, xizmat sifati oshishiga olib keladi. Registon ansambli O'zbekistonning milliy g'ururi va jahon ahamiyatiga ega madaniy meros obyektidir. Undan turizm sohasida oqilona foydalanish mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xo'losa qilib aytganda, muzeylashtirish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va muhofaza choralari samarali yo'lga qo'yish kelajak avlodlar uchun ushbu bebaho merosni saqlab qolish imkonini beradi. Respublikamizning barcha madaniy meros obyektlarini ushbu madaniy merosning tarixini o'rgangan xolda muzeylashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Milliy madaniy merosni asrab-avaylash esa bizlarning kelajak avlodlar oldidagi muhim vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samarov X. Q., Milliy madaniy meros turizmi. Monografiya. Toshkent, 2022.-187 b.
2. Samarov X. Q., O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda milliy meros boyliklaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari. Avtoref, PhD., Samarqand, 2023.-64 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
4. Samarqand shahri tarixiga oid ilmiy manbalar.
5. Temuriylar davri me'morchiligi bo'yicha tadqiqotlar.